


NAMANGAN VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASI (2020-yil yanvar-may oylari uchun dastlabki ma`lumot)

Viloyatning tashqi iqtisodiy faoliyati, xususan tashqi savdo sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning pirovard natijasi aholining turmush darajasiga bevosita o`z ta`sirini o`tkazadi.

2020-yil yanvar-may oylari yakuni bilan viloyatning tashqi savdo aylanmasi (matnda TSA) 315,0 mln. AQSh dollarini tashkil etib, 2019-yilning mos davriga nisbatan 90,3 mln. AQSh dollariga yoki 22,3 % ga kamaydi.

TASHQI SAVDO
AYLANMASI
VA BALANSI
(yanvar-may,
mln. AQSh
dollari)



Ma`lumot uchun: Namangan viloyati tovarlar tashqi savdosi statistika ko`rsatkichlarini shakllantirishda, Tashqi iqtisodiy faoliyat Tovar nomenklaturasi (keying o`rinlarda TIF TN) bilan birgalikda, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Xalqaro standartlashgan savdo tasniflagichi (keyingi o`rinlarda – XSST) ishlatiladi. Bu o`z navbatida tahliliy maqsadlarda eksport va import qilinadigan tovarlarni 10 ta katta qismga guruhlash uchun imkon beradi. Tovarlarini XSST bo`yicha kodlashtirish, TIF TN va XSST o`rtasida o`tish kalitlari yordamida amalga oshiriladi.

NAMANGAN
VILOYAT
BILAN TASHQI
SAVDO
AYLANMASI
ENG YUQORI
ULUSHGA EGA
BO`LGAN
DAVLATLAR
(2020-yil
yanvar-may,
mln. AQSh
dollari, ulushi,
% da)

TSA da eksport hajmi 137,9 mln. AQSh dollariga (4,1 % ga kamaydi) va import hajmi 177,2 mln. AQSh dollariga (32,3 % ga kamaydi) yetdi. Hisobot davrida – 39,3 mln. AQSh dollari qiymatida passiv tashqi savdo balansi qayd etildi.

Top-10 davlatlar	TSA	Eksport	Import	Ulushi, % da
Rossiya Federatsiyasi	80,7	48,9	31,8	25,6
Xitoy Xalq Respublikasi	73,5	13,3	60,3	23,3
Qozog`iston	35,4	18,2	17,2	11,2
Qirg`iz Respublikasi	34,1	32,1	2,0	10,8
Turkiya	16,0	4,5	11,5	5,1
Shveysariya	9,7	-	9,7	3,1
Germaniya	7,6	1,2	6,4	2,4
Koreya Respublikasi	7,2	0,2	7,1	2,3
Yaponiya	6,7	-	6,7	2,1
Malayziya	4,0	-	4,0	1,3

So`nggi yillarda hukumatimiz tomonidan sanoat tuzilmasini diversifikatsiya qilishda, eksportni qo`llab-quvvatlash, import o`rnini bosuvchi tovar va mahsulotlarni ishlab chiqarishni yanada oshirilishi natijasida, eksport tarkibida sezilarli o`zgarishga erishildi.

Namangan viloyati, jahonning 63 dan ortiq mamlakatlari bilan savdo aloqalarini amalga oshirib kelmoqda. TSA ning nisbatan salmoqli hissasi Rossiya Federatsiyasida (25,6 %), Xitoy Xalq Respublikasida (23,3 %), Qozog`istonda (11,2 %), Qirg`iz Respublikasida (10,8 %), Turkiyada (5,1 %), Shveysariyada (3,1 %) va Germaniyada (2,4 %) qayd etilgan.



Shuningdek, qo`shni davlatlar bilan o`zaro aloqalarni mustahkamlash, mamlakatlarni ijtimoiy-iqtisodiy, savdo-sanoat hamda madaniy sohalardagi aloqalarini rivojlantirish borasida katta ishlar amalga oshirilayotganini ko`rish mumkin.

Xususan, qo`shni davlatlar Qozog`iston va Qirg`iz Respublikalari bilan TSA da so`nggi yillarda katta o`zgarishlar kuzatilyapti. Misol uchun, so`nggi uch yilda TSA Qirg`iziston va Qozg`iston bilan tashqi savdo aylanmasi oshgani kuzatilmoqda.

Boshqa davlatlar (qo`shni davlatlardan tashqari) bilan esa, TSA da eng yuqori ulush Rossiya, Xitoy, Turkiya va Shveysariya davlatlari hissasiga to`g`ri kelgan.

Tashqi iqtisodiy faoliyat bo`yicha 20 ta yirik hamkor-davlatlar orasidan oltita davlatda faol tashqi savdo balansi kuzatilgan, xususan, Rossiya Federatsiyasi (80,7 mln. AQSh dollari), Xitoy Xalq Respublikasi (73,5 mln. AQSh dollari), Qozog`iston (35,4 mln. AQSh dollari), Qirg`iz Respublikasi (34,1 mln. AQSh dollari), Turkiya (16,0 mln. AQSh dollari) va Shveysariya (9,7 mln. AQSh dollari) shular jumlasidandir. Qolgan 14 ta davlatlar bilan passiv tashqi savdo balansi saqlanib qolmoqda.

NAMANGAN
VILOYATINING
YIRIK HAMKOR
DAVLATLAR
BILAN TASHQI
SAVDO
AYLANMASI
DINAMIKASI
(yanvar-may,
ming. AQSh
dollari)

Davlatlar	2018-y.	2019-y.	2020-y.
Rossiya Federatsiyasi	67137,7	79253,2	80699,2
Eksport	38038,2	48956,3	48857,8
Import	29099,5	30296,9	31841,4
Saldo	8938,7	18659,4	8938,7
Xitoy Xalq Respublikasi	66074,6	102792,9	73549,7
Eksport	11785	17491,4	13297
Import	54289,6	85301,5	60252,7
Saldo	-42504,6	-67810,1	-46955,7
Qozog`iston	52112,1	37916,6	35398,3
Eksport	27692,9	19848,9	18208,2
Import	24419,2	18067,7	17190,1
Saldo	3273,7	1781,2	1018,1
Turkiya	50905,6	41495,1	16020,2
Eksport	2673,6	7869,1	4472,9
Import	48232	33626	11547,3
Saldo	-45558,4	-25756,9	-7074,4
Germaniya	34062,9	9806,5	7569,6
Eksport	545,9	1992,4	1177,8
Import	33517	7814,1	6391,8
Saldo	-32971,1	-5821,7	-5214
Pokiston	6119,6	803,3	1579,7
Eksport	1511,8	117,9	1573,4
Import	4607,8	685,4	6,3
Saldo	-3096	-567,5	1567,1
Koreya Respublikasi	5803,6	10108,6	7242,3
Eksport	315,1	45	154,4
Import	5488,5	10063,6	7087,9
Saldo	-5173,4	-10018,6	-6933,5

NAMANGAN
VILOYATINING
YIRIK HAMKOR
DAVLATLAR
BILAN TASHQI
SAVDO
AYLANMASI
DINAMIKASI
(yanvar-may,
ming. AQSh
dollari)


Davlatlar	2018-y.	2019-y.	2020-y.
Ukraina	4933,5	7095,2	3813,8
Eksport	1992,7	3594,6	3198,9
Import	2940,8	3500,6	614,9
Saldo	-948,1	94	2584
Qirg`iziston Respublikasi	4617	36542,7	34106,9
Eksport	3640,1	35091	32082,7
Import	976,9	1451,7	2024,2
Saldo	2663,2	33639,3	30058,5
Hinditon	4380,8	5205,4	2546,3
Eksport	931,6	287,9	226,8
Import	3449,2	4917,5	2319,5
Saldo	-2517,6	-4629,6	-2092,7
Latviya	4260,3	9865,2	443
Eksport	0	60,2	1,8
Import	4260,3	9805	441,2
Saldo	-4260,3	-9744,8	-439,4
Birlashgan Arab Amirligi	4256,9	698,5	561,5
Eksport	127,3	39,5	345
Import	4129,6	659	216,5
Saldo	-4002,3	-619,5	128,5
Afg`oniston	3291,7	231,7	1133,5
Eksport	3201,1	231,7	1133,5
Import	90,6	0	0
Saldo	3110,5	231,7	1133,5
Niderlandiya	2979,9	1396,7	911,9
Eksport	0	0	0
Import	2979,9	1396,7	911,9
Saldo	-2979,9	-1396,7	-911,9

NAMANGAN
VILOYATINING
YIRIK HAMKOR
DAVLATLAR
BILAN TASHQI
SAVDO
AYLANMASI
DINAMIKASI
(yanvar-may,
ming. AQSh
dollari)

Davlatlar	2018-y.	2019-y.	2020-y.
Polsha	2858,8	3849,4	3188,9
Eksport	47,1	1296,3	2520,9
Import	2811,7	2553,1	668
Saldo	-2764,6	-1256,8	1852,9
Belarus	2371,6	1782,2	1287,9
Eksport	1006,6	804,4	1055,9
Import	1365	977,8	232
Saldo	-358,4	-173,4	823,9
Turkmaniston	1865,8	2230,1	2543,3
Eksport	198,8	436,5	1362,5
Import	1667	1793,6	1180,8
Saldo	-1468,2	-1357,1	181,7
Italiya	1724,5	2642,2	2626,9
Eksport	185,8	225,2	617,7
Import	1538,7	2417	2009,2
Saldo	-1352,9	-2191,8	-1391,5
Litva	1525,2	5428,8	1153,3
Eksport	311,4	28,1	19,8
Import	1213,8	5400,7	1133,5
Saldo	-902,4	-5372,6	-1113,7
Ispaniya	1335,2	272,5	516,8
Eksport	0	0	0,1
Import	1335,2	272,5	516,7
Saldo	-1335,2	-272,5	-516,6

Viloyatda tashqi savdoni qo'llab-quvvatlash hamda MDH davlatlari bilan ushbu sohadagi hamkorlikni yanada mustahkamlash bo'yicha olib borilayotgan chora-tadbirlar natijasida, 2020-yil yanvar-may oylarida, tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi 51,2 % ni tashkil etib, tashqi savdo aylanmasidagi 2019-yilga nisbatan ulushi 3,0 % ga oshgan.

NAMANGAN VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASIDA MDH MAMLAKATLARI VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARNING HAJMLARI DINAMIKASI (yanvar-may, mln. AQSh dollari, ulushi, % da)




Boshqa xorijiy davlatlarning TSA si 2020-yil yanvar-may oylarida 2019-yilning shu davriga nisbatan kamaydi (24,1 % ga) va jami TSA dagi ulushi 48,2 % ni tashkil etdi.

NAMANGAN VILOYATINING EKSPORTI (2020-yil yanvar-may)

Joriy yilning yanvar-may oylarida viloyatning eksportyorlar soni 324 tani tashkil etib, ular tomonidan 137,9 mln. AQSh dollari (qimmatbaho metallar eksportidan tashqari) qiymatidagi (2019-yilning mos davriga nisbatan 4,1 % ga kamaydi) tovar va xizmatlar eksport qilinishi ta`minlandi.

Eksport tarkibida tovarlar ulushi 97,7 % ni tashkil etib, ular oziq ovqat mahsulotlari (25,5 %), yengil sanoat (23,4 %) va qora va rangli metallar (3,2 %) hissasiga to`g`ri kelmoqda.

XSST
BO`YICHA
EKSPORT
TARKIBI
(2020-yil
yanvar-may,
ulushi, % da)



**MDH
VA BOSHQA
XORIJIY
DAVLATLARGA
EKSPORT
TARKIBI
(2020-yil
yanvar-may)**

XSST tarkibi	Mln. AQSh dollari			Umumiy hajmga nisbatan, % da		
	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar
Jami eksport	137,9	107,8	30,1	100,0	100,0	100,0
shu jumladan:						
Paxta tolasi	0,3	0,0	0,3	0,2	-	1,1
Oziq-ovqat mahsulotlari	34,7	28,0	6,7	25,2	25,9	22,4
Kimyo mahsulotlari va buyimlari	1,7	1,6	0,1	1,3	1,6	0,3
Qora va rangli metallar	4,4	4,3	0,1	3,2	4,0	0,2
Mashina va asbob-uskunalar	3,0	2,9	0,1	2,2	2,7	0,3
Yengil sanoat	76,7	56,8	19,9	55,7	52,7	66,5
Xizmatlar	3,2	1,9	1,3	2,3	1,7	4,3
Boshqalar	13,7	12,2	1,5	10,0	11,4	4,9

MDH mamlakatlari va boshqa mamlakatlarga eksportning yo`nalishi bo`yicha farqlanishlar mavjudligi kuzatilmoqda. Xususan, MDH mamlakatlariga eksportning asosiy qismi oziq-ovqat mahsulotlariga to`g`ri kelmoqda, keyingi o`rinlarda eksport hajmi bo`yicha asosan yengil sanoat tovarlari, qora va rangli metallar,

mashina va asbob-uskunalar va kimyo mahsulotlariga to'g'ri kelmoqda.

XSST tarkibi	2019 yilning yanvar-may ga nisbatan, % da		
	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar
Jami	95,9	98,1	88,9
shu jumladan:			
Paxta tolasi	100	-	100
Oziq-ovqat mahsulotlari	64,7	56,9	149,4
Kimyo mahsulotlari va buyimlari	213,3	227,0	91,6
Qora va rangli metallar	1157,9	1201,3	324,3
Mashina va asbob-uskunalar	45,9	77,9	3,2
Yengil sanoat	111,2	119,9	92,1
Xizmatlar	77,9	59,4	140,5
Boshqa tovarlar	175,7	303,8	39,2

**MDH
VA BOSHQA
XORIJIY
DAVLATLARGA
TOVAR
VA XIZMATLAR
EKSPORTINING
O`SISH
SUR`ATLARI
(2020-yil
yanvar-may)**

Hisobot davrida metallar, kimyoviy moddalar va boshqa tovarlarning eksporti tez sur'atlar bilan o'sdi, pasayish asosan mashinalar va asbob-uskunalar, yengil sanoat va oziq-ovqat mahsulotlarining eksportida kuzatildi.

2020-yil yanvar-may oylarida boshqa mamlakatlarga eksport qilinadigan tovarlar va xizmatlar tarkibi tahlili, 2019 yilning yanvar-may oylariga nisbatan yengil sanoat, oziq-ovqat mahsulotlari, mashina va asbob-uskunalar va xizmatlar eksporti kamayganligi kuzatildi.

**EKSPORT
TARKIBI
DINAMIKASI
(yanvar-may,
% da)**

XSST tarkibi	2018-y.	2019-y.	2020-y.
Jami	100,0	100,0	100,0
shu jumladan:			
Paxta tolasi	-	-	0,2
Oziq-ovqat mahsulotlari	37,8	37,3	25,2
Kimyo mahsulotlari va buyimlari	0,3	0,6	1,3
Qora va rangli metallar	0,3	0,3	3,2
Mashina va asbob-uskunalar	0,3	4,6	2,2
Yengil sanoat	-	48,0	23,4
Xizmatlar	3,7	2,8	2,3
Boshqalar	57,6	6,4	42,2


XSST bo`limi nomi	Mln. AQSh dollari	2019-yilning mos davriga nisbatan, % da
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar		
Sabzavotlar va mevalar	32468,9	64,6
Donli ekinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	1552,7	2,3 p.
Hayvonlar uchun ozuqalar (maydalanmagan donlardan tashqari)	31,7	100
Kofe, choy, kakao, ziravorlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	321,9	134,8
Sut mahsulotlari va parranda tuxumlari	330,8	90,4
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg`idan tashqari		
Kauchuk va kauchuk buyumlar	51,0	28,3 p.
Teri xom ashyolari, charm va mo'ynadan yasalgan buyumlar	1939,0	51,5
Yog'och va yog'och mahsulotlari	6,6	110
Qog'oz pulpa va chiqindi qog'oz	126,2	93,0

**XSST BO`LIMI
BO`YICHA
AYRIM
MAHSULOTLAR
EKSPORTI
TARKIBI
(2020 yil
yanvar-may)**

Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o`xshash mahsulotlar		
Birlamchi shakldagi plastmassalar	66,5	43,5
Noorganik kimyo moddalari	-	
O`g`itlar	-	
Tibbiyot va farmatsevtika mahsulotlari	617,5	7,3 p.
Boshqa joyda tasniflanmagan kimyoviy materiallar va mahsulotlar	1004,5	171,9
Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari		
To`qimachilik yigirilgan ipi, matolar, tayyor buyumlar va shunga o`xshash mahsulotlar	76743,2	111,2
Rangli metallar	4,1	3,7 p.
Qora metallar va undan tayorlangan mahsulotlar	4423,9	11,6 p.
Mashinalar va transport asbob-uskunolari		
Qozonxonalar, uskunalar va mexanik qurilmalar, ularning qismlari asboblari va apparatlari	266,6	91,9
Optik fotosurat, kinematik o`lchash, o`lchashni nazorat qilish, aniqlik, tibbiy va jarrohlik asboblari va apparatlari; ularning qismlari va printeri	14,2	100
Turli xil tayyor buyumlar		
Poyabzal	242,4	80,7
Boshqa tovarlar		
Tirik daraxtlar va boshqa o'simliklar	10796,0	3,7 p.
Keramika buyumlari	374,3	187,1 p.
Xizmatlar		
Xizmatlar	3156,9	100,9

So`nggi uch yilda MDH mamlakatlariga eksport hajmi oshdi va ularning jami eksportdagi ulushi 2019-yil yanvar-maydagi 74,8 % dan 2020-yil yanvar-mayida 78,2 % ga yetdi. Mos ravishda boshqa mamlakatlarning jami eksportdagi ulushi 21,8 % ni tashkil etdi.

MDH
VA BOSHQA
DAVLATLARGA
TOVAR
VA XIZMATLAR
EKSPORTI
HAJMLARI
DINAMIKASI
(yanvar-may,
mln. AQSh
dollari,
ulushi, % da)



2020-yilning yanvar-may oylari yakunida tovar va xizmatlar eksporti bo'yicha asosiy hamkor davlatlar tarkibida Rossiya Federatsiyasi (eksport umumiy hajmining 34,5 %), Qirg'iz Respublikasi (23,3 %), Qozog'iston (13,2 %), Xitoy Xalq Respublikasi (9,6 %), Turkiya (3,2 %) va Ukraina (2,3 %), Polsha (1,8 %) davlatlari saqlanib qolmoqda, hamda ularning jami eksportdagi ulushi 88,9 foizni tashkil etmoqda.

Tovarlar va xizmatlar eksporti bo'yicha yettita asosiy hamkor davlatlardan Rossiya Federatsiyasi eksportdagi ulushi bo'yicha peshqadamlikni saqlab qolmoqda.

Hamkor mamlakatlarning tovarlar va xizmatlar eksporti bo'yicha geografiyasi 2019-yilning mos davriga nisbatan 39 davlatdan 38 davlatga kamaydi.

NAMANGAN VILOYAT EKSPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLAR-NING ULUSHI (2020-yil yanvar-may, % da)



NAMANGAN VILOYATINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARGA AMALGA OSHIRGAN EKSPORTI HAJMI VA O`SISH SUR`ATLARI (yanvar-may)

Davlatlar	Ming.AQSH dollari		O'sish sur'ati, % da		O'rni	
	2019-y.	2020-y.	2019-y.	2020-y.	2019-y.	2020-y.
Rossiya Federatsiyasi	48857,8	48956,3	128,7	99,8	1	1
Qirg'iz Respublikasi	32082,7	35091,0	9,6 p.	91,4	2	2
Qozog'iston	18208,2	19848,9	71,7	91,7	3	3
Xitoy Xalq Respublikasi	13297	17491,4	148,4	76,0	4	4
Turkiya	4472,9	7869,1	2,9 p.	56,8	5	5
Ukraina	3198,9	3594,6	180,4	89,0	6	6
Polsha	2520,9	1296,3	27,5 p.	194,5	7	7
Tojikiston	2154,6	293,3	2,7 p.	7,4 p.	8	8
Pokiston	1573,4	117,9	7,8	13,3 p.	9	9
Turkmaniston	1362,5	436,5	2,2 p.	3,1 p.	10	10
Eron	1225,5	716,8	4,2 p.	171,0	11	11
Germaniya	1177,8	1992,4	3,7 p.	59,1	12	12
Afg'oniston	1133,5	231,7	7,2	4,9 p.	13	13
Belarus Respublikasi	1055,9	804,4	79,9	131,3	14	14
Portugaliya	805,1	597,2	100,0	134,8	15	15
Italiya	617,7	225,2	121,2	2,7 p.	16	16
Moldova Respublikasi	575	548,3	127,1	104,9	17	17
Gruziya	396,2	217,5	7,2 p.	182,2	18	18
BAA	345	39,5	31,0	8,7 p.	19	19
Ozarbajjon	334,8	389,6	100,0	85,9	20	20

**NAMANGAN
VILOYATINING
AYRIM
DAVLATLAR
BILAN EKSPORT
TARKIBI
(2020 yil
yanvar-may,
ulushi % da)**

Ushbu mamlakatlarga eksport qilinayotgan tovarlar tarkibiga asosan oziq-ovqat mahsulotlari, mashinalar va transport asbob-uskunalar, kimyo mahsulotlari va buyimlari va boshqa tovarlar kiradi.

XSST tarkibi	Rossiya Federatsiyasi		Qirg'iz Respublikasi		Qozog'iston		Xitoy Xalq Respublikasi	
	2019-y.	2020-y.	2019-y.	2020-y.	2019-y.	2020-y.	2019-y.	2020-y.
Jami eksport	48956,3	48956,3	35091	35091,0	19848,9	19848,9	17491,4	17491,4
shu jumladan:								
Paxta tolasi	-	-	-	-	-	-	-	-
Oziq-ovqat mahsulotlari	5058,4	4054,5	27743,8	5806,6	14608,9	15183,5	1244,1	772,9
Kimyo mahsulotlari va buyimlari	579,7	828,6	140,7	280,1	13,4	74,7	-	-
Qora va rangli metallar	38,9	-	294,5	4067,3	22,4	160,6	-	-
Mashina va asbob-uskunalar	3514,0	2646,0	24,9	276,8	-	11,9	76,0	-
Yengil sanoat	3019,4	1716,8	79,8	123,0	25,6	17,2	2,0	-
Xizmatlar	35340,4	39611,9	6807,3	21528,9	5178,7	2760,3	16169,3	12524,1
Boshqa tovarlar	48956,3	48956,3	35091	35091,0	19848,9	19848,9	17491,4	17491,4

Xizmatlar eksporti hajmi 3156,8 ming.AQSh dollarini yoki jami eksport hajmining 2,3 % ini tashkil etib, 2019-yilning mos davriga nisbatan 0,5 % ga kamayganligi kuzatildi.

To`qimachilik mahsulotlari eksporti hajmining oshishi bevosita paxta xomashyosi o`rniga tayyor mahsulot ishlab chiqarish va qo`shimcha qiymat yaratish maqsadida amalga oshirilgan islohotlarning natijasi ekanini ko`rish mumkin. Jumladan, joriy yilda 76743,2 ming.AQSh dollarlik to`qimachilik mahsulotlari eksporti amalga oshirilib, umumiy eksportning 55,7 % ini tashkil etdi va o`tgan yilga nisbatan 7,7 % ga o`sdi.

Eksport qilingan to`qimachilik mahsulotlari tarkibida paxta (47,1 %), kiyim va aksessuarlar trikotaj kiyimlar (23,9 %) asosiy ulushni egallagan. Yil boshidan 107 turdagi to`qimachilik mahsulotlari eksport qilindi.

**TO`QIMACHILIK
MAHSULOTLARI
NI EKSPORT
TUZILISHI
DINAMIKASI
(yanvar-may
ulushi, % da)**

Tovar nomi	2018-y.	2019-y.	2020-y.
Paxta	26430,0	35381,2	36144,6
Tayyor trikotaj va tikuvchilik kiyimlari	12141,3	15808,3	18336,5
Boshqa tayyor to`qimachilik mahsulotlari	6376,3	9301,4	13482,3
Kiyim-kechak to`qimachilik mahsulotlari	3134,8	5966,1	5741,3
Qolda va dastgohda tikilgan trikotaj matolari	1964,7	1865,9	2602,4
Ipak	2121,6	708,6	578,7


Viloyatning to`qimachilik sanoatini diversifikatsiya qilish va tayyor mahsulotlar eksportini rag`batlantirish borasidagi amaliy

ishlari natijasida, viloyatimizning ushbu sohadagi salohiyati oshib bormoqda.


NAMANGAN VILOYATINING IMPORTI (2020-yil yanvar-may)

2020-yil yanvar-may oylarida import hajmi 177,2 mln. AQSh dollarini va 2019-yilning mos davriga nisbatan 95,9 % ni tashkil etdi.

Import tarkibida eng katta ulush, mashinalar va transport asbob-uskunolari (34,6 %), oziq-ovqat mahsulotlari (20,5 %) hamda kimyoviy vositalar (16,2 %) hisobiga to`g`ri keldi.



XSST BO`LIMI
BO`YICHA
IMPORT
TARKIBI
(2020-yil
yanvar-may,
ulushi, % da)



Tovar va xizmatlar importi dinamikasi tahliliga ko`ra, 2020-yilning yanvar-may oylarida import qilingan tovarlar hajmi, o`tgan yilning mos davriga nisbatan 84,5 mln. AQSh dollariga

kamaydi va 177,2 mln. AQSh dollarini tashkil etdi. Xizmatlar importi esa 0,5 mln. AQSh dollariga yetdi.

**MDH
VA BOSHQA
XORIJIY
DAVLATLARDAN
IMPORT TARKIBI
(2020-yil
yanvar-may)**

XSST tarkibi	Mln. AQSh dollari			Umumiy hajmga nisbatan, % da		
	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar
Jami import	177,2	53,4	123,8	100,0	100,0	100,0
shu jumladan:						
Energiya manbaalari	3,2	3,0	0,2	1,8	5,7	0,1
Oziq-ovqat mahsulotlari	28,7	18,4	10,3	16,2	34,5	8,3
Kimyo mahsulotlari va buyimlari	36,4	5,4	31,0	20,5	10,1	25,0
Qora va rangli metallar	14,3	6,0	8,3	8,1	11,3	6,7
Mashina va asbob-uskunalar	61,3	3,8	57,5	34,6	7,0	46,5
Xizmatlar	0,5	0,1	0,4	0,3	0,2	0,3
Boshqa tovarlar	32,9	16,7	16,2	18,5	31,2	13,1

Importning eng katta ulushi, jumladan, oziq-ovqat mahsulotlari (7,0 %), kimyo mahsulotlari va buyimlari (10,1 %) hamda qora va rangli metallar (11,3 %) MDH mamlakatlariga to`g`ri keladi, boshqa xorijiy mamlakatlarga esa eng katta ulush mashinalar va transport asbob-uskunolari (46,5 %) va kimyo mahsulotlari va buyimlari (25,0 %), hissasiga to`g`ri keladi

XSST tarkibi	2019-yil yanvar-may oylariga nisbatan, % da		
	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar
Jami	67,7	94,7	60,3

shu jumladan:

Energiya manbaalari	2,1 p.	2,9 p.	37,4
Oziq-ovqat mahsulotlari	120,4	163,6	81,6
Kimyo mahsulotlari va buyimlari	67,2	47,7	72,4
Qora va rangli metallar	151,7	170,3	140,5
Mashina va asbob-uskunalar	47,7	61,7	47,0
Xizmatlar	83,5	174,3	72,4
Boshqa tovarlar	75,3	72,2	78,8

**IMPORT TARKIBI
DINAMIKASI
(2020-yil
yanvar-may,
ulushi, % da)**

Joriy davrda import qilingan tovarlar va xizmatlar tarkibi tahlili shuni ko'rsatdiki, 2018-yilning mos davriga nisbatan oziq-ovqat mahsulotlari importining ulushi 9,1 % dan 16,2 % gacha o'sdi, mashina va asbob-uskunalar 49,2 % dan 34,6 % ga, kimyo mahsulotlari va buyimlari importining ulushi esa 20,7 % dan 20,5 % ga kamaydi.

**IMPORT TARKIBI
DINAMIKASI
(2018-2020-yil
yanvar-may
oylaridagi
ulushi, % da)**

XSST tarkibi	2018-y.	2019-y.	2020-y.
Jami	100,0	100,0	100,0
shu jumladan:			
Energiya manbaalari	0,4	0,6	1,8
Oziq-ovqat mahsulotlari	18,6	9,1	16,2
Kimyo mahsulotlari va buyimlari	17,6	20,7	20,5
Qora va rangli metallar	8,1	3,6	8,1
Mashina va asbob-uskunalar	44,6	49,2	34,6
Xizmatlar	0,1	0,2	0,3
Boshqa tovarlar	10,6	16,7	18,5

**XSTT BO`YICHA
IMPORT
QILINGAN
AYRIM TURDAGI
MAHSULOTLAR
TARKIBI
(2020-yil
yanvar-may
2019-yil
yanvar-may
oylariga
nisbatan)**


Mahsulot nomi	Mln. AQSh dollari	o'zgarish sura'tlari, % da
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar		
Sabzavotlar va mevalar	216,1	21,2
Donli ekinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	4284,9	53,6
Hayvonlar uchun ozuqalar (maydalanmagan donlardan tashqari)	2573	71,2
Kofe, choy, kakao, ziravorlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	5731,4	143,5
Sut mahsulotlari va parranda tuxumlari	878,8	5,6 p.
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg`idan tashqari		
Kauchuk va kauchuk buyumlar	1046,5	93,6
Teri xom ashyolari, charm va mo'ynadan yasalgan buyumlar	7,4	34,1
Yog'och va yog'och mahsulotlari	8577,1	62,8
Qog'oz pulpa va chiqindi qog'oz	3658,3	87,7
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o`xshash mahsulotlar		
Birlamchi shakldagi plastmassalar	9949,0	82,5
Noorganik kimyo moddalari	-	-
O`g`itlar	-	-
Tibbiyot va farmatsevtika mahsulotlari	3595,1	113,3
Boshqa joyda tasniflanmagan kimyoviy materiallar va mahsulotlar	20576,1	60,9
Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari		
To`qimachilik yigirilgan ipi, matolar, tayyor buyumlar va shunga o`xshash mahsulotlar	3241,3	60,1
Rangli metallar	270,6	70,0
Qora metallar va undan tayyorlangan mahsulotlar	15357,9	145,5
Mashinalar va transport asbob-uskunalari		
Qozonxonalar, uskunalar va mexanik qurilmalar, ularning qismlari asboblari va apparatlari	48604,3	48,8
Optik fotosurat, kinematik o'lchash, o'lchashni nazorat qilish, aniqlik, tibbiy va jarrohlik asboblari va apparatlari; ularning qismlari va printeri	1463,8	41,9
Turli xil tayyor buyumlar		
Poyabzal	36,5	30,9
Boshqalar		
Tirik daraxtlar va boshqa o'simliklar	2126,2	8,7 p.
Keramika buyumlari	86,3	27,2
Tuz, oltingugurt, yer va tosh, gips materiallari, ohak va sement	5876,9	4,4 p.
Xizmatlar		
Xizmatlar	450,0	83,5

oziq-ovqat mahsulotlari importi hajmlarining kamayishiga Sabzavotlar va mevalar sabab buldi (21,2 % ga pasaygan), donli ekinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar (53,6 % ga) importining kamayishi ta`sir qilgan.

Shuningdek sanoat tovarlari, to'qimachilik va to'qimachilik mahsulotlari (60,1 %), rangli metallar (70,0 %) importi kamayishi kuzatilgan.

So'nggi uch yil ichida MDH mamlakatlariga import hajmi oshdi va ularning umumiy hajmidagi ulushi 25,3 % dan 30,1 % gacha o`sishi kuzatildi. Mos ravishda, boshqa xorijiy mamlakatlarning umumiy import hajmidagi ulushi 74,7 % dan 69,9 % gacha pasaydi.

MDH
VA BOSHQA
XORIJIY
DAVLATLARDAN
TOVAR
VA XIZMATLAR
IMPORTI



Hisobot davri yakunlariga ko`ra, import bo`yicha hamkor davlatlar orasida Xitoy Xalq Respublikasi umumiy import hajmida 34,0 % ulushi bilan Rossiya Federatsiyasini (18,0 %) ortda qoldirgan holda, birinchi o`rinni egalladi.

**TOVAR
VA XIZMATLAR
IMPORTIDAGI
YIGIRMATA
YIRIK HAMKOR
DAVLATLAR
(yanvar-may)**

Davlatlar	Ming. AQSH dollari		O`shish sur`ati, % da		O`rni	
	2019-y.	2020-y.	2019-y.	2020-y.	2019-y.	2020-y.
Xitoy Xalq Respublikasi	85301,5	60252,7	157,1	70,6	1	1
Rossiya Federatsiyasi	30296,9	31841,4	104,1	105,1	3	2
Qozog`iston	18067,7	17190,1	74,0	95,1	5	3
Turkiya	33626,0	11547,3	69,7	34,3	2	4
Shvetsariya	240,9	9659,3	51,8	4009,7	20	5
Koreya Respublikasi	10063,6	7087,9	183,4	70,4	6	6
Yaponiya	24315,3	6703,3	2188,6	27,6	4	7
Germaniya	7814,1	6391,8	23,3	81,8	7	8
Malayziya	2476,2	4012,7	329,7	162,1	11	9
Vengriya	384,4	2755,1	62,1	716,7	18	10
Hindiston	4917,5	2319,5	142,6	47,2	9	11
Qirg`iz Respublikasi	1451,7	2024,2	148,6	139,4	15	12
Italiya	2417	2009,2	157,1	83,1	12	13
Avstriya	2508	1508,7	19441,9	60,2	10	14
Fransiya	382,4	1329,4	200,7	347,6	19	15
Turkmaniston	1793,6	1180,8	107,6	65,8	13	16
Litva	5400,7	1133,5	444,9	21,0	8	17
Eron	1727,9	967,9	174,8	56,0	14	18
Niderlandiya	1396,7	911,9	46,9	65,3	16	19
Tayvan	1057	678,2	133,9	64,2	17	20

2019-yil bilan taqqoslaganda import bo`yicha eng yuqori oltilikda o`zgarish kuzatilmadi.

**NAMANGAN
VILOYAT
IMPORTIDA
ASOSIY
HAMKOR
DAVLATLAR-
NING ULUSHI
(2020-yil
yanvar-may,
% da)**

2020-yil yanvar-may oylari yakuni bo'yicha Namangan viloyati tomonidan 56 davlat bilan tovarlar va xizmatlar importi amalga oshirildi.



Yetti yirik hamkor davlatlar (Xitoy, Rossiya Federatsiyasi, Koreya Respublikasi, Qozog'iston, Turkiya, Shvetsariya va Koreya Respublikasi va Yaponiya) jami importning 81,4 % ini tashkil qiladi, bu 144 282 ming. AQSh dollarini tashkil etadi.

Mamlakatdagi sarmoyaviy muhit yaxshilangani sari va ushbu sohada amalga oshirilgan islohotlar natijasida mashina va uskunalar, shuningdek, ularning qismlari importining o'sishi tabiiydir. Shunday qilib, Xitoy, Koreya, Rossiya, Germaniya tomonidan kiritilgan katta hajmdagi investitsiyalar natijasida, mahsulotlar importi hajmida ushbu mamlakatlarning yuqori ulushi saqlanib qolmoqda.

**Tashqi iqtisodiy faoliyat
va savdo statistikasi boshqarmasi
Tel.:(69)-226-84-95**